


 YOSHLAR
KUTUBXONASI

Odil YOQUBOV

ULUG'BEK XAZINASI



Odil Yoqubov



Roman



Yoshlar nashriyot uyi
Toshkent–2018

UO‘K 821.512.133-31
KBK 84(5O‘)6
Yo 93

Yoqubov, Odil

Ulug‘bek xazinasi: roman / O. YOQUBOV . – Toshkent:Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 432 b.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” nomli asari siz o‘quvchilarga yaxshi tanish. Asarda bobokalonimiz Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bekning shaxsiy hayoti, fojiaiy qismati haqida hayajon bilan hikoya qilinadi.

UO‘K 821.512.133-31
KBK 84(5O‘)6

ISBN 978-9943-5219-7-1

© Yoshlar nashriyot
uyi, 2018

BIRINCHI QISM

1

Vaqt tun yarmidan oshgan. Rasadxona teran sukutda.

Odatdagiday, kechasi samoviy holatlarni kuzatib oʻtirgan mavlono Alouddin Ali ibn Muhammad Qushchi bir payt vujudida xiyol noxushlik sezib, oʻrnidan turdi. Lekin qoʻlidagi olatlarni¹ joyiga qoʻyib ulgurmagan ham ediki, qayerdadir yuqorida, birinchi oshyonada oyoq tovushlari eshitildi. Bu tovushlar rasadxona tolibi ilmlarining sharpasiz odimlariga oʻxshamas, sipohlarning betakalluf qadamlarini eslatardi. Mavlono sergaklanib yuqori oshyonaning darchadan kichik oʻymakor eshigiga tikildi, nimqorongʻi rasadxonada yoʻgʻon va oʻktam ovoz yangradi:

– Mavlono Ali ibn Muhammad Qushchi hazratlari! Shahriyori falak-iqtidor² Mirzo Ulugʻbek Koʻragoniy hazratlari amr etmishlarkim, Koʻksaroyda darhol hozir-u nozir boʻlgʻaysiz!

Ali Qushchi kaftini qoshlari ustiga tutib, navkarlarni yaxshiroq koʻrishga urindi, lekin navkarlar mashʼallarini boshlari uzra baland ushlab turishar, sersoqol yuzlari chalachulpa koʻrinardi.

– Bir daqiqa fursat bergaysiz. Olatlarni yigʻishtiray, – dedi Ali Qushchi.

Gʻira-shira rasadxonada yana boyagi tahdidli ovoz yangradi:

– Fursat ziq, mavlono. Otlar shay!

¹ Olat – asbob.

² Shahriyori falak-iqtidor – qudratli shoh maʼnosida.

Navkarlar nag'al qoqilgan og'ir etiklari bilan marmar zinalarni gurs-gurs bosib, orqaga chekinishdi. Qo'llaridagi mash'allarning shu'lasi devorlarning tilla suvi yuritilgan naqshlarini bir yalab so'ndi, rasadxona yana qorong' ilashdi. Faqat shiftdagi tuynukda oppoq yirik yulduzlar g'alati charaqlab turardi. Bu tuynuk shunday yasalgan ediki, pastda o'rnatilgan sudsi faxri¹ sathida samoda sayr etayotgan yulduzlar holati kuzatilib borilar edi.

Ali Qushchi kaltagina cho'qqi soqolini tutamlab, bir zum tuynukka tikilib qoldi.

O'tgan kuni tong payti ustod Mirzo Ulug'bek rasadxona-ga tashrif buyurgan edi. Yo'lbars terisi yopilgan o'z kursida o'tirib, timqora osmonga razm solib uzoq xayol surdi.

Ali Qushchi bilar, bu yil sohibqiron Amir Temur tug'ilgan yildagiday falak qozisi Mushtariy² bilan Zuhro yulduzlari bir-biriga yaqin kelishi kutilar edi. Ko'ngli notinch davlatpanoh esa bunga allaqanday umid bog'lar, nimanidir kutar edi.

Mana, bir-ikki yil bo'ldi, olis Hirotdan Xoqoni Said atalmish Shohruh Mirzo vafoti to'g'risida mash'um xabar kelganidan buyon Movarounnahr va Xuroson osmonidan qora bulutlar arimay qoldi. Taxt va saltanat ishqida yong'an Temuriy shahzodalar qilich va tig' charxlashdan qo'llari bo'shamadi. Nihoyat, Ulug'bek qilichi o'tkir chiqib, mag'ribdan mashriqqa qanot yozgan hududsiz saltanat xiyol osoyish topgan edi, toj-u taxt valiahdi shahzoda Abdullatif o'z padari buzrukvoriga qarshi shamshir ko'tarib chiqdi. Rajab oyining boshlarida a'lohazratlari lashkar tortib Jayhun³ tomon o'tlanishga majbur bo'ldi. Ammo davlatpanoh Jayhun bo'ylarida lashkar tortib turganida dorulmulkda

¹ Sudsi faxri – sekstant.

² Mushtariy – Yupiter.

³ Jayhun – Amudaryo.

sodir bo'lgan fitnalar uni Samarqandga qaytishga majbur etdi. Mana endi uch-to'rt kundirkim, shaharda vahimali mish-mishlar: go'yo shahzoda lashkarlari Jayhundan o'tib Keshga¹ yaqinlashib qolganmish...

To'g'ri, o'tgan kuni saharda rasadxonaga kirib kelgan ustod bu to'g'rida so'z ochmadi. Qo'lida usturlob, samoni kuzatib uzoq o'tirdi, so'ng, marmar zinaning tik pillapoyalardan horg'in odimlab, uchinchi oshyonadagi kutubxonaga o'tdi. Chehrasi so'lg'in, xayoli parishon, naqshinkor javonlarga terilgan kitoblarni, salkam qirq yil saltanat tebratib yiqqan nodir qo'lyozmalarini bir-bir ko'zdan kechirdi, yodiga ustod Qozizoda Rumiylar tushdi, chamasi, uning "Riyoziyot"²ini varaqlab uzoq turdi, keyin bo'ynini xam qilganicha lom-mim demay bir-bir bosib chiqib ketdi. U hatto Ali Qushchi bilan xayrlashmadi ham. A'lohazratlarini hovliga kuzatib chiqqan Ali Qushchiga ustod go'yo rasadxona bilan vidolashgani kelganday tuyulib, yuragi zirqirab ketdi. Ikki kungacha ustodning mahzun nigohi ko'z oldidan ketmay iztirob chekdi, bir necha bor Ko'ksaroyga borishga chog'landi, lekin jur'at etolmadi. Mana endi ustod o'zi uni Ko'ksaroyga chorlabdilar.

Ali Qushchi qora duxoba taqyasining ustidan mudarra dastorini³ o'radi, egniga yengsiz kimxob nimchasini, uning ustidan oq chakmonini kiydi-da, tik zinalardan yurib, yuqoriga chiqa boshladi...

2

Samo artilgan chinniday tiniq, yulduzlar charaqlab turar, lekin sha'boni oyi o'z kuchiga kirgan, tog'dan esayotgan izg'irin ostida daraxtlar daryoday shovullar, keksa tut va sadalar nola chekayotganday chiyillar, g'iytilar edi.

¹ Kesh – Shahrisabz.

² Riyoziyot – matematika.

³ Mudarra dastori – mudarrislik sallasi.

Ali Qushchi hovliga chiqishi bilan o‘ng qo‘ldagi binodan kimdir “lip” etib chiqib, yo‘lini to‘sdi.

– To‘xtang, ustod! Bu navkarlarning murodi ne? Qayga olib ketadur sizni?

Ali Qushchi suyakli shogirdi Miram Chalabiyni tanib, uni yelkasidan quchdi.

– Qo‘rqma, inim, a’lo hazratlari chaqiribdurlar. Tezda qaytamen.

Ali Qushchi rasadxonaning kalitini Miram Chalabiya topshirib, hovliga chiqdi. Navkarlardan biri qorong‘ida betoqat depsinib turgan arg‘umoqni ro‘para qilib, qo‘ltig‘idan oldi. Lekin Ali Qushchi uzangini topib, tipirchilagan otga o‘zi sapchib mindi-da, jilovini qo‘liga oldi: u “qushchi”¹ nomini bekorga olmagan, a’lo hazratlari bilan ovga chiqqan paytlarida, ne-ne asov tulporlarni jilovlab, bir lahzada o‘ziga o‘rgatib olardi!..

Tun sukutini ot tuyoqlarining dupuri buzdi. Navkarlardan biri oldinda, ikkinchisi yonma-yon ot choptirib borardi. Otliqlar Siyobdan o‘tib, do‘ngga chiqqanlarida “Shohizinda” qabristonining qo‘rg‘oni va qo‘rg‘on ortida qator maqbaralarning yuksak gumbazlari ko‘rindi. Tun oysiz bo‘lsa ham, yulduzlar aks etgan firuza gumbazlari allaqanday ko‘kish jilo taratib, g‘alati yaltillab turardi. Qayerdandir olisdan, Qusam ibn Abbos daxmasi tomondan tilovat qilayotgan qorining mungli ovozi kelardi. Hazin kuyga o‘xshagan bu tovush go‘yo boshqa olamdan kelayotgan cheksiz nolaga o‘xshar, keksa sadalar ortidagi ulkan qabristonga, qorong‘ida haybatli ko‘ringan qubbador daxmalarga allaqanday ilohiy ruh baxsh etar, borliq sirli va mudhish tuyulardi.

Otliqlar qabristondan o‘tib, masjidi jomega yaqinlashganlarida har joy-har joyda gulxan yoqib, davra qurib

¹ Qushchi – bu yerda mohir ovchi ma’nosida.

o'tirgan posbonlar uchradi. Ular ot tuyoqlarining dupurini eshitib, o'rinlaridan sakrab turishar, lekin oldinda borayotgan yasovulning amri bilan yo'lni ochib, otliqlarni o'tkazib yuborishardi.

Registon oldidagi keng maydon lashkarga to'lib ketgan, sarbozlar daha-daha¹ bo'lishib gulxan yoqib o'tirishardi. Mirzo Ulug'bek madrasasi ro'parasidagi xonaqohlardan zikr tushayotgan qalandalarning ovozlari baralla eshilib turardi:

Yo ollo, do'st, yo ollo!

Haq do'st, yo ollo!

Shahar uzra qanot yozgan xavf-xatar sababmi, qalandalarning jazava bilan hu-hulab zikr tushishlari vahimali tuyular, go'yo ular olloga hamd-u sano o'qimoqda emas bil'aks, kimgadir tahdid qilmoqda edilar.

Tor, timli rastalardan keyin chuqur xandaq bilan o'ralgan Ko'ksaroyning kungurador devorlari qorong'ida cho'ng qoyaday haybatli tuyuladi. Qal'a devorlari ortidagi saroy gumbazlari eski daxmalarday vazmin qorayib turar, qal'a ham ulkan go'ristonni eslatar, go'ristonday sirli va osuda edi. Saroyda milt etgan chiroq ko'rinmas, bu yerda hatto posbonlar ham gulxan yoqishmagan, hammayoq zimiston edi. Faqat Go'ri Amirga qaragan maydonga chiqqanlaridagina yo'llarini fonus ushlagan posbonlar to'sishdi. Qorong'ida ularning qalqonlari yaltirab, tug'li nayzalari ko'zga chalindi. Posbonlardan o'tib, ikki yonidagi burjlariga to'p o'rnatilgan baland darvozaxona oldiga borganlarida ularning yo'lini yana qilich yalang'ochlagan sipohlar to'sishdi. Birinchi yasovul karnay qilib o'rab olgan yorlig'ini ko'rsatib darvozaxonaga kirdi. Sal o'tmay qulf va zanjirlarning og'ir sharaqlashi eshilib, Go'ri Amirga

¹ Daha-daha – o'n kishi-o'n kishi.

qaragan ikki tabaqali quyma darvozaning yon eshigi sekin g'ichirlab ochildi. Ichkaridan fonus ushlagan tanish salohdor¹ chiqdi.

Egardan sakrab tushgan Ali Qushchi birinchi siphoga otining jilovini tutqazib, darvozaxonaga kirdi.

Salohdor fonusini baland ko'targancha ro'paradagi eshikni ochib unga yo'l berdi.

Baland kungurador devor bilan o'ralib, yuksak burjlarga to'p o'rnatilgan o'rdaday hovlining har joy-har joyida tosh fonuslar miltirab turardi. Hovlining so'l tomonida pastqamroq binolar saf tortgan bo'lib, bu – devonxonona edi. Devonxonaning ortida baland devor bilan to'silgan haram binolari oqarib ko'rinar, o'ng tomonda ikki va uch oshyonali koshonalarning tillakori gumbazlari yal-yal yonardi. Hovli ham go'ristonday osuda, faqat yer tagidan allaqanday gurs-gurs ovozlar quloqqa chalinar, aftidan, saroy ostidagi yerto'lalarda aslahasozlar ishlamoqda edi.

Salohdor, atrofi archa bilan o'ralgan, o'rtasiga kumush favvora o'rnatilgan marmar sarhovuzning yonidan o'tib, baland peshtoqli koshonaga yaqinlashdi. Raxlariga tilla tasma qoqilgan o'ymakor eshikning ikki yonida turgan yasovullarning biri chapdastlik bilan eshikni ochib, ularga yo'l berdi.

Ular g'ira-shira tor yo'lakdan o'tib, tilla shamdonlarga terilgan shamlardan charog'on xonaga kirishdi. Tagiga qirmizi turkman gilamlari to'shalgan, devorlari firuza rang sopol parchinlar bilan qoplangan bu xonaning to'rida yuqori oshyonaga chiqadigan marmar zina ko'rinar.

Ularni eshikda kutib olgan tund yuzli tanish saroybon Ali Qushchini yuqoriga boshladi.

Ikkinchi oshyonadagi katta tanobiy xona ham bo'mbo'sh edi. Saroybon Ali Qushchiga shu yerda kutib turishni

¹ Salohdor – darvozabon.

imo bilan bildirib, roʻparadagi eshikdan aʼlohazratlarining salomxonasiga kirib ketdi. Eshik ochilganda bir zum ustodning asabiylashgan boʻgʻiq tovushi eshitilib, eshik yopilishi bilan yana tindi.

Ali Qushchi xonada yolgʻiz qolishi bilan koʻngli gʻalati boʻlib ketdi: yerga sheroziy gilamlar toʻshalgan shiftidagi oltin qandilda behisob shamlar yongan bu keng, charogʻon xonaning hamma devorlari ustodning ovdagi oʻljalari-yu, ov anjomlari bilan bezatilgan edi. Ana, qarshidagi qubador darchaning tepasiga laʼl va inju qadalgan, quloch yetmas arxar shoxi osilgan. Bu arxarni uzoq yili kuzda Hisor togʻlariga ovga chiqqanlarida ustod oʻzi otib olgan, shuning uchun ham hamisha boʻlakcha bir faxr bilan tilga olardilar. Arxar shoxining yonida, kamon oʻqlari terilgan qizil charm sadoqning¹ ustiga yoʻlbars terisi osilgan. Bu yoʻlbars Jayhun boʻylaridan, ustod Xuroson yurishidan qaytib kelayotganida otib olingan edi.

Olis va sermashaqqat yurishdan toliqqan davlatpanoh Samarqandga chopar yuborib, Ali Qushchini Jayhun boʻylariga chaqirtirib olgan edi. Ali Qushchining poyqadam qutlugʻ boʻlgan, chunki ov paytida tuya boʻyi keladigan qamishzordan nogahon shu yoʻlbars chiqib qolib, ustodga hamla qilgan, shunda kamonini shay qilib yonma-yon borayotgan Ali Qushchi chapdastlik bilan oʻq uzgan, uning oʻqi oʻkirib osmonga sapchigan yirtqichning koʻziga tegib, aʼlohazratlari eson qolgan edi. Shu-shu, ustod uni koʻrganda “haloskorim”, deb hazillashardi...

Ali Qushchi bu serhasham va serjilo xonani tomosha qilarkan, xayoliga bir fikr kelib, maʼyus kulimsirab qoʻydi. Bir mahallar Mirzo Ulugʻbekning farmoni bilan bu qasri oliyga ilk bor qadam qoʻyganida vujudini shunday zoʻr bir hayajon chulgʻab olgan ediki, boyagi marmar hovuzlar-

¹ Sadoq – oʻqdon.



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi
<https://kitobxon.com/uz/asar/3539> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси
<https://kitobxon.com/uz/asar/3539> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию
можно найти на сайте
<https://kitobxon.com/ru/asar/3539>